

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI MILLIYLIK RUHIDA TARBIYALASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14901337>

**Meliboyeva Farangiz Kurbonazarovna**  
*Sariosiyo tumani 20-DMMT tarbiyachisi*

### **Annotatsiya**

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish va maktabga tayyorlash, ularning ruhiyati, shaxsiy qobiliyati, intilishi va ehtiyojlari milliy va umuminsoniy qadriyatlar hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda rivojlanishni ta'minlash, ularni mакtab ta'limiga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarini umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ma'rifiy-madaniy tarbiyasida tabarruk dinimiz imkoniyatlari, buyuk ma'naviy-ma'rifiy merosimizdan foydalanish birinchi masala darajasiga olib chiqish, esa maqsadga muvofiqliqdir.

### **Kalit so'zlar**

Diniy imkoniyatlari, zo'ravonlik g'oyasi "virusi", sivilizatsiyasi markazi, «nasl» va «nasiba»,

Barchamizga yaxshi ma'lumki, har bir davlatning barqaror taraqqiyoti hamda rivojlanishi inson omiliga, xususan, yosh avlodning ilmiy, ijodiy va ma'naviy salohiyatiga bog'liq. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi muammolari deyarli barcha mamlakatlar uchun umumiylashtiriladi. Yoshlar tarbiyasi mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida shunday dedi: "Bugungi dunyo yoshlari - son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga etishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olish. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llabquvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya hilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. O'zbek xalqining asriy an'analari, jumladan, tarbiya sohasidagi an'analari ajdodlarimizning tabarruk dini bilan bog'liq. Yoshi kattalarga salom berish, ularni hurmat qilish, yoshi kichiklar va kuchsizlarni avaylash, ilm olish va kasb o'rganishga da'vat, halol

mehnat qilishga chaqirish, qo'shnilar bilan xushmuomala bo'lish kabi an'analar ozbeklar oilalarida, ularning dinga munosabatlaridan qat'iy nazar, yoshlarga singdirib kelingan. Yoshlar tarbiyasida islom ma'rifatining muhim o'rnini e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2017-2018-yillarda qator g'oyalar va tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, Samarqand viloyatida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, Termizda Imom Termiziy ilmiy tadqiqot markazi va Toshkentda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil qilish to'g'risida davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari habul qilindi. Albatta, har bir xalq o'z milliy qadriyatlar qobig'idagina o'ralib qolmasligi kerak. Boshqa millatlarning qadriyatlarini o'rganish hamma vaqt ham taraqqiyotning omillaridan biri bo'lib kelgan. Qadriyatlar qanchalik bir-biriga yaqinlashib, ta'sir ko'rsatmasin, har bir millat uchun ma'naviy kamolotning asosiy yo'li va mezoni milliy qadriyatlar bo'lib qoladi. Biron millatning yaxshi urf odatlari, marosimlari qachonki boshqa millat ruhiga, milliy ma'naviy ehtiyoji va talablariga mos kelgandagina Shu millat hayotida chuqur tomir otish imkoniga ega bo'ladi. Har bir xalq qadrlagan narsa yoki hodisa, birinchi navbatda, uning milliy ma'naviyati bilan bog'liq bo'ladi. Milliy qadriyatlar ham qandaydir o'zgarmas hodisa emas. Millat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotning takomillashib borishi, yashash va mehnat qilish Sharoitlari o'zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib borishiga imkon yaratiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, bu yosh avloddan milliy g'oya asosidagi tafakkur , chuqur bilim va ixtisoslikni talab kilmokda . Uning negizimilliy qadriyatlarimizdir. « Yangicha yashash , ozod va obod Vatan erkin va farovon xayot kurish tuygusi esa yosh avlod oldiga keksa avlodga qaraganda mas'uliyatlirok vazifalarni qo'yimokda . Xususan , ong va tafakkur xamda ma'naviy qadriyatlardagi uzgarishlar xayot talabidan orkada kolayotganligi ma'naviy saloxiyatdagi qusurlar bilan bog'liqdir .

Axloq-shaxs yoki guruh faoliyatini baholashorqali jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish mehanizmi hisoblanadi. Har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'zo'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin." -deb ta'kidlaydi.. Asriy qadriyatlarimiz tiklanmoqda. Xalqimiz ma'naviyati o'zining tabiiytarixiy, milliy, diniy va falsafiy sarchashmalariga qaytmoqda. Ayniqsa ma'naviy meroslarimizni o'rganish, buyuk allomalarimiz va ulug' ajdodlarimizning

muborak nomlari xalqimizga qaytarilishi, tilimiz va dinimiz rivojlanishi uchun sharoit yaratilgani o'zbek ma'naviyati uchun buyuk xaloskorlik va millatimizning kelajak taraqqiyoti uchun qudratli kuch, omil bo'ldi.

Mustaqillik sharoitida, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda, yuqorida ko'rsatibo'tganimizdek, ma'naviy yetuk insonlarni tarbiyalashda ma'naviy merosimizga munosabatimiz, uning bugungi va ertasi,

qanday bo'la oladi, komil inson mezonlarida tarbiya topayotgan bugungi yoshlarimiz mamlakatimizning barqarorligi, taraqqiyotida egallaydiga

n o'rni, umuman, yuksak ma'naviyatlari jamiyatni barpo etish,

boshqa ilg'or xalqlarda bo'lgani kabi, bizning millatimiz, jamiyatimiz uchun o'zining dolzarbligini hech qachon yo'qotmasligi milliy ma'naviyatimiz qanchalar teran ekanligidan dalolat beradi. Vatanimiz

zaminida kamolotning poydevori oilada bunyod etiladi. Asrlar davomida shakllangan an'anayu udumlarimiz, ijtimoiy ma'naviy qadriyatlarimiz barhayotligini ta'minlab, avloddan-avlodga yetishiga

xizmat qilayotgan ham shubhasiz oila qo'rg'onidir. Qolaversa, oila bugungi kunga kelib butun dunyoda, hatto shaxs individualizmi har narsadan ustun qo'yiladigan g'arb mamlakatlarida ham jamiyat ustuni,

insonga o'zligini anglatuvchi dargoh sifatida tan olinmoqda. Oilaga jamiyat instituti maqomi berilganiyoq uning mustahkamligi jamiyat ravnaqi uchun naqadar ahamiyatli ekanidan dalolatdir.Jumladan,

yurtboshimizning quyidagi fikrlari so'zimizning yorqin isbotidir: "Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebahol

ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.Shaxsan menga «nasl» va «nasiba» degan so'zlar o'rtasida qandaydir ilohiy bog'liqlik bordek tuyuladi. Albatta, har bir bandaga rizk

-nasibani Olloh taolo beradi. Lekin bu xayotda nasibasi butun va to'la bo'lishi uchun insonning o'zi ham chin dildan intilishi, surriyodini sog'lom muhitda tarbiyalashi katta ahamiyatga ega ekanini unutmasligimiz zarur. Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning

baxtu saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxtu saodat faqat boylik, molu mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir

Maktabgacha yoshdagagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish va maktabga tayyorlash, ularning ruhiyati, shaxsiy qobiliyati, intilishi va ehtiyojlarini milliy va

umuminsoniy qadriyatlar hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda rivojlanishni ta'minlash, ularni maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ma'rifiy-madaniy tarbiyasida tabarruk dinimiz imkoniyatlari, buyuk ma'naviy-ma'rifiy merosimizdan foydalanish birinchi masala darajasiga olib chiqish, esa maqsadga muvofiqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizova Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. -T., 2010.
2. "Maktabgacha pedagogika" Sh. Sodikova. Toshkent - 2013
3. Boboyeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish jarayonida ertaklar asosida atrof-muhit bilan tanishtirish /Ilmiy to'plam. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2000. - 103-105-b.
3. Г.И.ХАСАНОВА "Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари" Жиззах: 2020. 420 бет. 223-225б
4. .Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг креатив қобилияtlарини ривожлантиришнинг мазмуни. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782.
5. Norquzieva. MEnsuring professional stability of future teachers in pedagogical activity European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 6, 2020